



DIZARTRIK BOLALARDA KORREKSION DIDAKTIK YONDASHUV USULLARI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Maxsus pedagogika(logopediya) 201-guruh talabasi
Kamoliddinova Madina Davronbek qizi
Ilmiy raxbar: Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi;
Mamatisayeva Surayyo Axmadjon qizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233833>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dizartrik bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ularni korreksiya qilishda qo'llaniladigan didaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. Dizartriyaning asosiy turlari kelib chiqish sabablari va uning pedagogik korreksiya jarayoniga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar, vizual yondashuvlar, nutq terapiya asosida olib boriladigan mashg'ulotlarning dizartrik bolalar nutqini rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: dizartriya, korreksiya, didaktik o'yinlar, nutq buzilishi, pedagogik yondashuv, logopedik mashg'ulotlar, talaffuz buzilishi, nutqiy muloqot, nutq terapiyasi, ijtimoiylashuv

Dizartriya nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishi dizartriya deb yuritiladi. Dizartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-bo'lak, arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi. Dizartriya - bu markaziy harakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi. Dizartriya nutq a'zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi. Shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi. Dizartriya bolalarning nutq faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Dizartriya markaziy va periferik asab tizimi shikastlanadi va natijada nutq buzilishi yuzaga keladi.

Dizartrik bolalar bilan mashg'ulot tizimli va individual yondashuv asosida olib borilishi lozim. Mashg'ulot davomida oilaviy muhit muhim rol o'ynaydi. Bunda ota-onalar logopedning tavsiyalariga amal qilishi kerak. Dizartrik bolalarda talaffuz buzilish, nafas olish va artikulyatsiya muammolari kuzatiladi. Bolaning talaffuz buzilishida:

- tovushlarni aniq talaffuz qila olmaydi
- ba'zi harflarni aytmaydi yoki notog'ri talaffuz qiladi
- nutqi sust, tushunarsiz bo'ladi

Dizartrik bolalar yuzaki nafas oladilar. Bu uzun va murakkab gaplarni talaffuz qilishda qiyinchilik tug'diradi. Bunday bolalarda til, lab, yumshoq tanglay harakatlari sust yoki cheklangan bo'ladi. Bu tovushlarni to'g'ri shakllantirishga halaqit beradi.

Dizartrik bolalarda nutq buzilishlarini tuzatish va rivojlantirish uchun korreksion didaktik yondashuvlar, korreksion-pedagogik hamda logopedik mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega korreksion yondashuvlar bolalarning nutq qobiliyatlarini yaxshilash, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga yordam beradi. Korreksion didaktik yondashuvning maqsadi:

- dizartrik bolalarning nutq buzilishlarini tuzatish
- talaffuz va artikulyatsiyasini yaxshilash
- motor va sensor qobiliyatlarini rivojlantirish
- so'z boyligini oshirish va grammatik to'g'ri gapirishni shakllantirish
- nutqiy muloqotga o'rgatish
- o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish
- psixologik va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash iborat.

Dizartriya bilan og'rikan bolalar uchun psixik yordam muhim rol o'ynaydi. Bu bolalarning psixologik holatini yaxshilashga, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda va ijtimoiy muloqotda qulaylik yaratishda yordam beradi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik



ish dizartriyaning barcha shakllarida nutq buzilishi, umumiy va nutqiy motorika buzilishlarining mexanizmlarini bilish va bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Logopedik ishlarning eng asosiylaridan biri - dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatishdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatini artikulyatsiyon apparati harakatchanligiga qaratishi kerak bo'ladi. Logopedik mashg'ulotlar individual ravishda har kuni olib boriladi va mashg'ulotning vaqti 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Har bir mashg'ulot onalar ishtirokida o'kazilishi kerak. Chunki ona ish usullarini ko'rishi, o'rganishi va mustahkamlash maqsadida o'zi o'tkazishi lozim. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilar:

- tovushlarni to'g'ri talaffuzini o'rgatish
- nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushlarni nutqqa qo'yish va mustahkamlash
- fonematik idrokni rivojlantirish
- nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish
- paydo bo'lgan umumiy nutqning rivojlanmaganligini to'g'irlash

Nutqqacha bo'lgan davrda olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning asosiy maqsadi bola nutqini va shaxsini o'z vaqtida shakllantirishni ta'minlovchi rivojlantirishdan iborat. Korreksion-pedagogik mashg'ulot har kuni individual ravishda va maxsus jihozlangan xonada olib borilishi lozim. Korreksion-pedagogik ishning asosiy yo'nalishlari:

- artikulyatsion apparat muskullar tonusi va harakatini normal darajasiga keltirish
- nafas chiqarish hajmini va kuchini kengaytirish
- kuzatish ko'nikmasini turg'unligini rivojlantirish
- atrofdan kelayotgan ovozni qaysi tomondan kelayotganini topish va ko'nikmalarni shakllantirish

- artikulyatsion mashqlar orqali artikulyatsion organlarning funksiyasini normal holatga keltirishdan iborat.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlardan biri ovozni rivojlantirish. Dizartrik bolalarda ovozni rivojlantirish va korreksiyalash uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalaniladi. Bu mashqlar nafas faoliyati va artikulyatsiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ovoz ustida ishlash artikulyatsion gimnastika va massajdan keyin olib boriladi.

Dizartriklar bilan maxsus logopedik va korreksion ishlar og'ir nutq kamchiliklari bor maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan nutqiy bog'chalarda, nutqiy maktablarda yoki umumiy ta'lim qoshidagi nutqiy sinflarda, psixonevrologik shifoxonaning nutqiy bo'limlarida oib boriladi. Dizartriya qancha erta aniqlansa korreksiyasi ham shuncha samarali bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning samaradorligi avvalo, individual yondashuvga bog'liq. Bunday bolalarning nutq buzilishlarini bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlar, artikulyatsion gimnastika va nafas mashqlari ijobiy natijalarga olib keladi. Birinchi navbatda bunday bolalarning oilasi, ota-onasi muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar va defektologlar hamkorligidagi sa'y harakatlar bolada nutq rivojlanishini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik T: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2007.
2. Ayupova M. YU Korreksion ishlar metodikasi Ma'ruza matni T: 2001
3. Raxmanova V.S Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika) Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma T: "Niso Poligraf" 2017.
4. B.V. Belyakova Dizartriya tashxislash va korreksiya qilish metodikasi
5. A.V. Kolb. Dizartriya va uning korreksiyasi.
6. R.Sh. Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma.
7. Maxsus psixologiya Z.N. Mamarajabova, L.R. Mo'minova, M.U. Xamidova, Sh.M. Amirsaidova, D.B. Yakubjonova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova, O'zbekiston Toshkent - 2013



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



8. X.N.Muzaffarova Maktabgacha logopediya. Jizzax. “Ruhshona servis” 2021.